Совершенствование методологии исследования демографических процессов.....	1031
Тула Нодирбек Баходир угли	
Инновационные технологии в сфере страхования.....	1037
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KREDITLASHDA RISKLARNI BOSHQARISH USULLARIDAN FOYDALANISH



Abdullayeva Sharbat
TMI “Bank ishi” kafedrasi
professor



Abdullayeva Nozima
TMI doktorant tadqiqodchi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy banklar amaliyotida risklarni baholash va boshqarishda keng qo'llaniladigan VaR (Value at risk) – risk ostidagi qiymat usulining mohiyati, ahamiyati va mamlakatimiz banklari faoliyatida uni qo'llash imkoniyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: bank, kredit, risk, bank riski, qiymat, zarar, defolt, foiz, usul, boshqarish, riskni baholash, riskni boshqarish.

Abstract: The article is devoted to the issues of improving the mechanism for assessing and managing banking risks using the foreign VaR (Value at risk) methodology in the activities of commercial banks.

Key words: bank, credit, risk, bank risks, cost, losses, default, percentage, methodology, management, risk assessment, risk management.

Аннотация: Статья посвящена вопросам совершенствования механизма оценки и управления банковских рисков с применением зарубежной методики VaR (Value at risk) в деятельности коммерческих банков.

Ключевые слова: банк, кредит, риск, банковские риски, стоимость, убытки, дефолт, процент, методика, управления, оценка риска, управления риска.

KIRISH

Iqtisodiyotning muhim subyekti sifatida banklar faoliyati, ayniqsa, kreditlash jarayonlari doimo risk bilan bog'liq. Albatta, risk har qanday biznesda ham bo'ladi. Lekin faoliyat xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, banklar uchun risk uning har bir operatsiyasida yuz beradigan jarayon hisoblanadi. Shu tufayli, bu yerda gap bank faoliyatida riskdan umuman qochish to'g'risida emas, balki uni oldindan ko'ra bilish, uning oldini olish, uni baholash, boshqarish va minimal darajaga tushirish haqida boradi.

Hozirgi vaqtda ixtisoslashgan, tarmoq va universal banklarning mavjudligi banklar uchun bank riski ko'lamlarini har xillashtiradi. Ixtisoslashgan banklarning bir soha, bir tarmoqni kreditlashga moslashuvi ular faoliyatida risklarning yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu holat bank riskini boshqarishning asosiy usullarini chuqur bilish, ular bajaradigan operatsiyalarining samaradorligini aniqlay olish bankning kredit, investitsiya, valyuta, hisob kitob operatsiyalari va boshqa faoliyatida ularni qo'llab to'g'ri qaror qabul qilishga erishish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola mavzusini tadqiq qilishda xorijiy banklar amaliyotida risklarni qiymat jihatdan baholash va diversifikatsiya usuli orqali boshqarishda qiyosiy va analitik tahlil usullaridan foydalangan holda riskni to'g'ri baholash, riskga oid tarixiy materiallar, analiz-sintez usuli, statistik tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan holda amaliyotda riskni baholash va boshqarishda VaR va diversifikatsiya usullaridan foydalanish bo'yicha fikr va xulosalar shakllantirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank risklarining boshqarish jarayoni tijorat banklar tomonidan uning barcha faoliyat turlari va operatsiyalari bo'yicha bir butun yaxlitlikda olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv banklarga nafaqat bank risklarini o'z vaqtida aniqlash, to'g'ri baholash, boshqarish va nazorat qilish, balki bankning foyda va risk o'rtasidagi muvozanatni ham barqarorlashtirishga yordam beradi. Bank riskini boshqarishda bank daromadi bilan risklar o'rtasidagi optimal variantini topishdan iborat. Shu sababli banklarning risklarini boshqarish usullarini tahlil qilishi va o'rganish, riskni boshqarish jarayonida uni son va sifat jihatdan baholash muhim hisoblanadi. Biz ushbu maqolada bank riskini son va sifat jihatdan baholash hamda boshqarishning muhim usullaridan hisoblangan VAR – risk ostidagi qiymat usuli va diversifikatsiya usullari to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Kredit risklarini kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri bankning kredit resurslarini yig'ish va ulardan foydalanishda diversifikatsiya o'tkazishdir. Shundan kelib chiqqan holda bankning kredit portfelining diversifikatsiyasi bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan to'plash imkoniyatini beradi. Diversifikatsiyani portfel, geografik, kreditlarni to'lash muddati, sifati va hajmiga qarab o'tkazish samarali hisoblanadi. Diversifikatsiya qilinmagan kredit portfeli doimo yuqori risk bog'liq bo'ladi. Diversifikatsiya lotincha diversificatio so'zidan olingan bo'lib diversus "turli" + facere "qilish", ya'ni "o'zgartirish yoki harxillashtirish" degan ma'noni anglatadi. Ba'zi olimlar diversifikatsiya – bu yaxlitlikni harxillartirish deyishsa, rossiyalik iqtisodchi I. V. Kozlovning fikricha, diversifikatsiya – muhim investitsion tadbir bo'lib banklarda ular daromadlarini kamaytirmagan holda investitsiya portfeli bilan bog'liq risklarni kamaytirishdir¹. Rossiyalik olim G. B. Bakanovning fikricha, "Ishlab chiqarish korxonalarida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahsulotlar assortimenti va turlarini kengaytirish va boshqa shunga o'xshash jarayonlar ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi. U bozor raqobatida samarali ishtirok etish uchun qo'llaniladi². Mahalliy olimlarimizdan Sh. Z. Abdullayevaning fikricha, diversifikatsiya bank faoliyati prinsiplaridan biri bo'lib risklarni boshqarishda uning o'rni muhim hisoblanadi va diversifikatsiya har xillashtirish, turli-tumanlashtirish degan ma'noni bildiradi³. Uning fikricha, bank diversifikatsiyasi kredit va xizmatlar bilan bog'liq risklarni qisqartirish, ssuda portfelini muvofiqlashtirish maqsadida bank aktivlarini imkoniyati boricha ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlash, bank uchun birdan ortiq aktivga ega bo'lish deganidir⁴.

Bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish yo'li bilan kredit portfelini boshqarish bankning strategik rejalashtirish jarayoni bilan uzluksiz bog'liqdir. Diversifikatsiyaning xususiyatlari shundakim:

- birinchidan, diversifikatsiya hamma vaqt riskni yoqtirmaydigan banklar uchun qulay keladi, chunki u riskni kamaytiradi;
- ikkinchidan, kredit bo'yicha foyda harakati qancha kam mos kelsa, riskni kamaytirish hisobiga diversifikatsiyadan shuncha ko'p naf ko'rish mumkin.

Prof. Sh. Z. Abdullayevaning fikricha, tijorat banklar agressiv yoki konservativ strategiya qabul qilishlariga qarab bank tomonidan qabul qilinadigan riskning me'yorlari belgilanadi. Bunday yondashuv banklarga nafaqat bank risklarini to'g'ri baholash, rejalashtirish va nazorat qilishga, balki bankning foydasi va riski o'rtasidagi mutannosiblikni ta'minlashga ham yordam beradi. Riskni baholash usuli VAR – bu ehtimoliy – statistik usuldagi yondashuv bo'lib yo'qotishlarga olib keluvchi risklarning yuzaga kelishi ehtimolini ko'rsatadi va ma'lum vaqt oralig'ida yoki intervalda yo'qotishlar ehtimolining maksimal miqdorini ifodalaydi. Rossiyalik iqtisodchilar O. I. Lavrushin, N. I. Valenseva, L. N. Krasavinalarning fikricha, mazkur bosqich riskini tahlil etish, chegaralash va nazorat qilish uslublar va usullarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

VaR (Value at risk) – bu, ingliz tilidan olingan bo'lib, "riskdagi qiymat" yoki "riskka tortilgan qiymat" ma'nosini anglatadi hamda bu ko'rsatkich foyda olish uchun yo'naltirilgan qiymatning hajmida qancha ulushdagi qiymat riskka moyil ekanligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham VaR riskning qiymat o'lchovi deb hisoblanadi.

1 Kozlov I. V. Инвестирование для повышения эффективности экономической выгоды. М.: ИНФРА. –2018. 67 с.

2 Баканов Г. Б. Стратегический менеджмент. –М.: ОМЕГА, –2019. 84 с.

3 Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash.–T. "Moliya" –2002, –72 b.

4 Abdullayeva Sh. Z. Kredit va kreditlash amaliyoti. T.: "IQTISOD-MOLIYA". –2017, –50–56-b.



VaR (Value at risk) – risklarni baholash usuli sifatida odatda foizlarda hisoblanadi va ma’lum belgilangan vaqt oralig’ida, belgilangan ehtimol bilan aktivlar yoki ular qiymatining og’ishi yoki yo’qotishi chegarasini ko’rsatadi va yo’qotish miqdorini pul birligida ifodalaydi. Risklarini boshqarish jarayonini sxematik tarzda quyidagi bosqichlarda ifodalash mumkin:

1-jadval: Bank risklarini boshqarish bosqichlari

Bank risklarini aniqlash
Risklarga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash
Risklarni baholash
Risklarni kamaytirish bo’yicha usullarni va dasturlarni ishlab chiqish yoki tanlash
Risklarni kamaytirish bo’yicha dasturni amalga oshirish
Risklarni kamaytirish bo’yicha dastur ijrosining monitoringi
Risklarni kamaytirish dasturini korrektirovka qilish va natijalar tahlili, zaxiralar yaratish va boshqalar.

VAR – tahlil natijalari quyidagilarga bog’liq bo’ladi:

- jarayon, harakatning vaqti va ko’lamini aniqlashga;
- ko’rilayotgan davr intervalida berilgan ehtimollar;
- bozor holati va uning o’zgaruvchanligi bo’yicha tahlillariga bog’liqdir.

Bu ko’rsatkichni quyidagicha ham hisoblash mumkin, ya’ni:

$$\text{VAR} = Z \times (+/- \text{GAP}_i) \times T_i \times P / 365$$

bu yerda:


Z – ishonch interval kvantili;

GAP_i – i intervalda aktivlar va passivlar o’rtasidagi farq;

T_i – i intervaldagi muddatli davrning yarimi;


P – bozor stavkasining prognoz ko’rsatkichi.

Buni quyidagicha grafikda ham ko’rishimiz mumkin. Ya’ni ishonch intervalimiz quyida 95% bo’lib ushbu intervalga mos keladigan ishonch intervali kvantili standard normal taqsimot parametrlari bo’yicha 1.98 ni beradi va biz aynan taqsimotni chap tarafidagi eng past ko’rsatkichlarni kuzatishimiz mumkin.



1-rasm: VaR ni taqsimot ko’rinishidagi grafik ko’rinishi

Xuddi shu holatni 99% lik ishonch intervali bilan qaraydigan bo’lsak, biz ko’rishimiz mumkinki, bizning ishonch intervalimiz taqsimotdagi kuzatilgan ko’proq ma’lumotlarni o’z ichiga qamrab oladi va nisbatan ehtimoli kamroq bo’lgan kuzatiladigan yo’qotishlarni ham o’ziga mujassam qiladi. Shu bois, to’liq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, qanchalik ishonch intervalini oshiradigan bo’lsak bizning kutilayotgan yo’qotishimiz unga to’g’ri proporsional (absolyut sonlar nuqtayi nazaridan) ortib boradi.




2-rasm: VaR ning 99% ishonch intervali ko'rgazmasi

VaRni odatda uchta asosiy ko'rsatkich (me'zon)lar tavsiflaydi. Bular:

Vaqt. Bu ko'rsatkich bank tanlaydigan operatsiya yoki jarayonga bog'liq. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlariga asosan banklar uchun bu davr, vaqt 10 kunni, "RiskMetrics metodikasi" bo'yicha 1 kunni tashkil etadi.

Ishonch darajasi (confidence level) – bu yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasini ko'rsatadi. Bazel qo'mitasi hujjatlariga asosan ishonch darajasi sifatida 99 %, RiskMetrics tizimida – 95 % dan foydalaniladi.

Bazaviy valyuta, bu ko'rsatkich o'lchanayotgan pul birligi.



3-rasm: Riskka tortilgan qiymat (VaR)ning asosiy mezonlari

VaRda – masalan, 99 % ishonch bilan ehtimoliy yo'qotishlar miqdori hisoblangan VaRdan yuqori bo'lmaydi. Binobarin, yo'qotishlar miqdori VaR dan oshib ketishi holati 1 % ni tashkil etishi mumkin. Boshqacha aytganda, VaRda qaysi bir holat bo'yicha sizning ishonchingiz X% (ya'ni ehtimoliy jihatdan 100%ning qaysidir X qismi, X/100) hamda kelajakdagi N kun davomida yo'qotishlar miqdori Y dan yuqori bo'lmaydi. Bu gipotezada Y – noma'lum miqdor VaR hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, VaR tahlil quyidagicha fikr shakllangan holda olib boriladi: "Bizning zararimiz kelgusi N kun ichida Y qiymatdan X% (X% ehtimollikda) bilan oshmasligiga aminmiz". Bu holatda Y qiymat VaR bo'lib hisoblanadi. VaR ni hisoblash uchun aktivlar bo'yicha har kunlik qiymat o'zgarishlarining logarifmi aniqlanadi:

$$x_i = h \frac{F_t}{F_{t-1}}$$

Bu yerda:

F – aktivning har bir davr bo'yicha qiymati.

Bundan keyin har bir aktiv pozitsiyasi bo'yicha standart og'ish hisoblanadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N x_i^2}$$



Bu yerda: – N kunlar miqdori.

Yuqoridagi formulada kunlar miqdori 1 kunni tashkil etsa, u holda formuladagi ildiz amali olib tashlaydigan bo'lsak VaR ko'rsatkichini quyidagicha hisoblanadi:

$$VaR = k * \sigma * P * N$$

Bu yerda:

k – ishonchlilik darajalriga mos keluvchi koeffitsiyentlar;

P – moliyaviy aktivning joriy qiymati;

N – bir turdagi pozitsiyadagi moliyaviy aktivlarning soni;

Q – standart og'ish.

Xususan, agar moliyaviy aktivlarning qiymati ketma-ket ikki yil uchun 1) 5200 va 5000; 2) 4800 va 4700 bo'lsa, u holda aktivlar bo'yicha har kunlik qiymat o'zgarishlarining logarifmi quyidagi qiymatlarga teng bo'ladi:

$$x_1 = \ln \frac{F_t}{F_{t-1}} = 0,03922, \quad x_2 = \ln \frac{F_t}{F_{t-1}} = 0,0210$$

U holda standart og'ish quyidagiga teng bo'ladi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N x_i^2} = 0,001979$$

Bunda moliyaviy qiymatning joriy qiymati 5100 ga teng. Demak:

$$VaR = k * \sigma * P * N = 1,28 * 0,001979 * 5100 * 2 = 25,8371\%$$

Demak, barcha ma'lumotlar va omillarning ishonchliliigi 90% yoki 1,28 koeffitsiyentni tashkil etganda, yo'naltirilayotgan aktivning taxminiy 25,8% i riskka tortilgan bo'ladi va aktivlarni yo'naltirilayotgan subyekt maksimum aktivning 25,8 % ini yo'qotadi⁵.

Banklar amaliyotida ham VaR bank tomonidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar ehtimolini baholash imkonini beradi va belgilangan qisqa davr ichida maksimal zarar ko'rish ehtimoli qancha bo'lishi mumkin degan savolga javob beradi. Masalan, 100 doll. bilan bog'liq VaR – 99 % bo'lsa bizning kun davomida 100 doll. va undan ko'p mablag'ni yo'qotish ehtimolimiz 1 % ni tashkil etadi. Va bizning kun davomida 100 doll. va undan ko'p mablag'ni yo'qotmaslik ehtimolimiz 99% ni tashkil etadi.

VaR odatda uch asosiy elementdan tashkil topadi:

- ehtimoliy yo'qotishlar prognozi intervali (odatda 95% yoki 99%);
- prognozning vaqt intervali (odatda kun, oy, yil);
- yo'qotishlar ehtimoli (pul miqdori(odatda doll.) yoki foizda);

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. VaRni hisoblashda davrni va vaqtini tanlab olish muhim hisoblanadi. Qaysi davrda riskni hisob kitob qilishni xo'jalik subyekt yoki banklarning o'zi aniqlashi va xohlagan riskli hisoblagan davri uchun VaRni qo'llashi mumkin. Masalan, xorijiy davlatlarda banklar odatda VaRni kunlar uchun hisoblasa, pensiya fondlari oylar uchun hisoblashadi. Mamlakatimiz amaliyotida ham banklar va moliya tashkilotlari shunday usulni o'z amaliyotiga joriy etishi maqsadga muvofiq bo'lar edi;
2. VaR usuli turli risklarni hisoblashning universal usuli hisoblanadi. Xususan, VaR usuldan baho riski – moliyaviy aktivning bozordagi narxi o'zgarish riski, valyuta riski – bir mamlakat valyuta birligining boshqa mamlakat valyuta birligiga nisbatan bozorda o'zgarishi, kredit riski – olingan kredit bo'yicha qarzdorning kreditni qisman yoki to'liq qaytara olmaslik riski, likvidlik riski – aktivni sotishning ilojsizligi riski yoki moliyaviy aktivning yuqori hajmdagi yo'qotishlar bilan realizatsiya qilinishi riskini hisoblash va baholashda foydalanish mumkin;
3. Mahalliy banklarimizda VaRni qo'llashda tahlil qilinayotgan davr(oy, chorak, yil)ga oid daromadlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, ma'lumotlarni dinamikasiga qarab guruhlashtirish, riskni prognoz qilish davri va vaqtini aniqlash lozim bo'ladi;

5 Xorijiy manbalar asosida tizimlashtirildi.



4. Risklarni boshqarish sohasidagi chora-tadbirlarni tahlil qilish bilan bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarini muvofiqlashtirish lozim. Bunda bank rahbariyati risk omillarining boshqarilish darajasi qo'yilgan maqsadlarga mosligini aniqlashi kerak.
5. Risklarni boshqarish sohasida (har bir hisobot davri davomida va yakunida) olib borilgan tadbirlar va qarorlarni tahlil qilish, bank rahbariyati risk omillarini to'liq aniqlab olganligi va ularni bartaraf qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bankning qisqa va uzoq muddatli rejalarida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishni ta'minlay olishiga ishonch hosil qilishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Козлов И. В. Инвестирование для повышения эффективности экономической выгоды. М.: ИНФРА 2018. 67 с.
2. Баканов Г. Б. Стратегический менеджмент. –М.: ОМЕГА, 2019. 84 с.
3. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash.–Т: "Moliya" 2002, 72 b.
4. Abdullayeva Sh. Z. Kredit va kreditlash amaliyoti. –Т: "IQTISOD-MOLIYA". 2017, 50-56 b.
5. Abdullayeva Sh. Z. Bank risklari. Darslik. –Т.: Moliya-Iqtisod. 2019. 85 –102 b.
6. О. И. Лаврушин, Н. И. Валенцева, Л. Н. Красавина. Банковские риски. Учебник. –М.: КноРус, 2019. 201 с.
7. Palunin D. N. Adaptation of the best foreign practices in the field of risk management to the conditions of Russian industrial companies. Leadership and ManageMent #1–2019 (April-July).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

